XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 27 - fevral VI-59-20-4-58-K/23 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘larni ajratirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 126-moddasiga asosan tuman hokimligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashrifi davomida bergan topshiriqlari ijrosini taminlash, tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kreditor qarzdorliklarni qoplash hamda kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa tadbirlarga Qamashi tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘larini ajratish to‘g‘risidagi takliflarini o’rganib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qamashi tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari qismi hisobidan mablag‘larni ajratish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin hamda tegishli tashkilotlarning bildirish xatlari inobatga olinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashrifi davomida bergan topshiriqlari ijrosini taminlash shuningdek, ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kreditor qarzdorliklarni qoplash hamda kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa tadbirlarga yo‘naltiriladigan mablag‘lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Muminov) hamda tuman hokimligi moliya bo‘limi (Pardayev)ga:

belgilangan muddatlarda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash maqsadida tegishliligi

bo‘yicha mablag‘larni moliyalashtirish choralarini ko‘rish;

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining xarajatlar qismiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

ajratilgan mablag‘larni maqsadli o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganishlar o‘tkazish, o‘tkazilgan o‘rganishlar natijalariga ko‘ra, ishlatilmasdan qolgan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rish vazifalari yuklansin.

4. Tuman hokimligi, tegishli tashkilot rahbarlari va mas’ul xodimlariga, mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan mablag’lardan o‘z vaqtida belgilangan tartib asosida maqsadli sarflanishi yuzasidan javobgar ekanligi belgilab quyilsin.

5. Tuman g‘aznachilik bo‘limi (Bekpulatov) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Muminov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shaklllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Norqulov) zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.Tog‘ayev**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2023 yil 27 fevraldagi
VI-59-20-4-58-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qamashi tumani mahalliy byudjetning qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mablag‘lar

№	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘lar miqdori (mln, so‘m)	Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi va sarflanishiga ma’sul rahbar F.I.Sh
1.	O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qashqadaryo viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi tomonidan tuman hokimligining ma’muriy binosini qo‘riqlash xizmati xarajatlariga	133,0	Tuman hokimligi (N.Muminov)
2.	“Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga	300,0	Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Bekmirzayev)
3.	Changak MFYda osma ko‘prik qurilishini amalga oshirish harajatlariga	45,0	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Abdiyev)
4.	Qamashi tuman Irrigatsiya bo‘limi binosini ta’mirlash harajatlariga	55,0	Tuman Irrigatsiya bo‘limi (A.Erdanov)
5.	Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 9-sonli maktab binosiga lenolniyum qoplash harajatlariga	20,0	Tuman xalq ta’limi bo‘limi (N.Abrayeva)
6.	O‘zbekiston Respublikasi Yakkabog‘ tumanlararo iqtisodiy sudining 2022-yil 03-oktabrdagi 4-1806-2201/941-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga (Oqguzar ko‘cha chiroqlari)	102,9	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Abdiyev)
7.	“Xazrati Langar ota” ziyoratgohiga olib boruvchi piyodalar yo‘lagi atrofiga temir panjaralar o‘natish harajatlari uchun	252,0	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Abdiyev)
8.	Qayta tiklanuvchi energiya manba (quyosh panel)larini o‘rnatish va sotib olish bilan bog‘liq harajatlar uchun	150,0	Tuman hokimligi (N.Muminov)
9.	Qo‘lbola yog‘och elektor ustunlarini beton ustunlarga almashtirish harajatlari uchun	220,0	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Abdiyev)
10.	Ichki yo‘llarni ta’mirlash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish maqsadida maxsus texnika vositasi sotib olish harajatlari uchun	550,0	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Abdiyev)
	Jami:	**1827,9**	